O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 80/81

Malika IZOMOVA,
O‘qituvchi, Alfraganus universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: malikaizomova238@gmail.com, ORCID: 0009-0004-2058-3685

O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, f.f.d. R.Shirinova taqrizi asosida

EMOTSIONALLIKNI FRAZEOLOGIK SATHDA IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan emosionallik tushunchasining mohiyati va uning frazeologik birliklar tizimida namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada emosionallik va hissiyot tushunchalarining o‘zaro nisbati, ularning fanlararo talqinlari qiyosiy tahlil qilingan hamda E. G‘oziyev, A. Hojiyev, U. Rashidova, Sh. Safarov, Q. Musaev kabi olimlarning ushbu masalaga oid ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Ishda o‘zbek tili frazeologik lug‘ati materiallari asosida emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklar tanlab olinib tahlil qilingan, ular ijobiy (quvonch, shodlik, hayrat) va salbiy (g‘azab, qayg‘u, iztirob) semantik guruhlarga ajratilgan hamda har bir guruh alohida jadvallarda tizimli tarzda aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Emotsionallik, frazeologik birlik, emotsiya, tushuncha, konsept, til, nuq, salbiy, ijobiy, konnotatsiya.

FEATURES OF EXPRESSING EMOTIONALITY AT THE PHRASEOLOGICAL LEVEL

Annotation

This article examines the essence of the concept of emotionality – one of the topical directions in modern linguistics – and the features of its manifestation within the system of phraseological units. The article provides a comparative analysis of the relationship between the concepts of emotionality and feeling, their interdisciplinary interpretations, and summarizes the scholarly views of researchers such as E. G'oziyev, A. Hojiyev, U. Rashidova, Sh. Safarov, and Q. Musaev on this issue. Based on materials from the Uzbek phraseological dictionary, phraseological units expressing emotionality were selected and analyzed; they were divided into positive (joy, delight, surprise) and negative (anger, sorrow, distress) semantic groups, each systematically presented in separate tables.

Key words: Emotionality, phraseological unit, emotion, notion, concept, language, speech, negative, positive, connotation.

ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ НА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЕ

Аннотация

В данной статье исследуется сущность понятия эмоциональности – одного из актуальных направлений современного языкознания – и особенности его проявления в системе фразеологических единиц. В статье проведён сопоставительный анализ соотношения понятий эмоциональности и чувства, их междисциплинарных трактовок, а также обобщены научные взгляды таких учёных, как Э. Гозиев, А. Ходжиев, У. Рашидова, Ш. Сафаров, К. Мусаев по данному вопросу. В работе на материале узбекского фразеологического словаря отобраны и проанализированы фразеологические единицы, выражающие эмоциональность; они разделены на положительные (радость, ликование, удивление) и отрицательные (гнев, печаль, страдание) семантические группы, каждая из которых систематически отражена в отдельных таблицах.

Ключевые слова: Эмоциональность, фразеологическая единица, эмоция, понятие, концепт, язык, речь, отрицательный, положительный, коннотация.

Kirish. Til va hissiyot o‘zaro bog‘liq voqelik hisoblanadi. “Ma’lumki, lison - faqatgina insonga in’om etilgan ne’matdir. Shu sababli, lisoniy hodisalar tadqiqi boshqa ijtimoiy hodisalar tadqiqidan tubdan farq qiladi”. Emosiyalarni his etish va namoyon qilish ham shu qatorda insonga in’om etilgan ne’matlardan biridir. Bugungi kunda emosiyalar tadqiqi borasidagi qiziqishning o‘sishi kuzatilmoqda. Emosiyalar tadqiqi bilan psixologiya, falsafa, etnologiya, sosiologiya va tilshunoslik kabi bir qator bir biridan farqli sohalar shug‘ullanmoqda.

O‘zbek ruhshunos olimi E. G‘oziyev “Hissiyotni” – “borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsni subyektiv kechinmalarining aks ettirilishidir”, deya izoh beradi va psixologiya fanida hissiyot bilan emosiya terminlarini farqlashni tavsiya etadi. “Masalan, ranglarning o‘zgarishi, yuzlarning tabassumlanishi, lablarning titrashi, ko‘zlarning yarqirashi, kulgu, yig‘i, g‘amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emosiyaning ifodasidir” deya ta’kidlab, “vatanparvarlik, javobgarlik, mas’uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak hislatlarni ...emosiya sifatida talqin qilish oddiy safsataga aylanib qolgan bo‘lar edi” deb ta’kidlaydi.

O‘zbek tilidagi tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida emosional gap, uning turlari va emosional leksikaga oid ma’lumot keltirilgan. “Emosional leksika. So‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar; emosional bo‘yoqdor so‘zlar. Masalan, chehra, tabassum, so‘zlari ijobiy bo‘yoqdor; ustomon, ityaloq, imonsiz so‘zlari salbiy bo‘yoqdor so‘zlar. Emosional nutq. Turli emosiyalarni ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan nutq. Emosional gap. Qiyos. Intellektual nutq. Emosional so‘roq gap. Mavjud bir fakt haqida so‘roq bilan birga emosional munosabat ifodalovchi gaplar: Nima qiladi gapni cho‘zib? — ensasi qotib o‘yladi Sherzod (O‘.Xoshimov). “Voy o‘lmasam, qanaqa kishisiz o‘zi?” (Shuhrat). Emosional undov. So‘zlovchining his-tuyg‘ularini (xursandlik, qo‘rquv, g‘azab, jirkanish va hkz.) ifodalovchi undov. Masalan, oh, voy, ey, attang, bay-bay-bay va b. Emosional atamasining mazmuni sintaktik,

leksik jihatdan yoritilgan bo‘lib, emotivga esa ta’rif keltirilmagan. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning katta qismi insonning faoliyati, ruhiy holati, hissiy kechinmalari va aqliy imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Ma’lumki, leksik birliklar asosan voqea-hodisa va jarayonlarning nomini bildirsa, frazeologizmlar ko‘proq insonning ichki dunyosini - qayg‘u, quvonch, hayajon, sevgi-muhabbat, baxt kabi hissiy holatlarni, shuningdek, shaxsning sifat va xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois frazeologik birliklar nutqda obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni kuchaytiruvchi muhim til vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Emotsionallikni frazeologik birliklarda ifodalanishi borasida U.Rashidova o‘zining tadqiqot ishida bir qator fikr va xulosalarini berib o‘tgan. Olimaning fikricha, “emotivlikning uchta funksiyasi mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) Baholash vazifasi. Baho funksiyali iboralar yordamida muallifning obrazlarga, asar voqeligiga, personajlarning bir-biriga ijobiy yoki salbiy munosabati ifodalanadi (Juda bo‘ladi-da! Shunday qo‘li gul ustalarimiz bor, boplab tashlaydi; 2) Emosionallik vazifasi. O‘zbek tili frazeologik tizimida iboralarning katta guruhi so‘zlovchining shodligi, g‘azabi, nafrati, o‘kinchi, qo‘rquvi, kinoyasi, jirkanishi, loqaydligi, befarqligi singari emosional munosabatlarni ifodalab keladi. Kelib chiqishi jihatidan jest va mimika bilan bog‘liq ayrim iboralar kishilarning ichki kechinmalarini ifodalash va shu asosda emosional vazifa bajarish uchun xizmat qiladi (Bor, u qo‘lini bigiz qilib tashqari eshikni ko‘rsatdi. – Chiq bu yerdan!); 3) Ekspressivlik vazifasi. Ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik o‘zgarishlar undagi ekspressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi: a) fonetik o‘zgarish tufayli: yuragi qora – yuragi qop-qora, yuragi oq – yuragi oppoq; b) grammatik o‘zgarish tufayli: ko‘zi qiymaydi – ko‘zlari qiymaydi – ko‘zginasi qiymaydi; ko‘zining paxtasini chiqarmoq – ko‘zlarining paxtasini chiqarmoq; v) leksik o‘zgarish tufayli: ko‘zi ochildi – aql ko‘zi ochildi, ko‘zi to‘rt bo‘lib – ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib kabi. So‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar, so‘zlovchi kechayotgan voqea-hodisa idrokida betaraf bo‘lib qola olmaydi hamda nutqiy bayonida, axborot uzatishda o‘z hissiyotini izhor etadi. O‘zbek tili frazeologik lug‘atini tahlil qilish jarayonida o‘zida emotsionnalikni namoyon etadigan bir qator frazeologik birliklarni o‘rganib chiqdik (1.1-jadvalga qarang)

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarda emosionallikning ifodalanish xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning semantik-funksional tabiatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilab olindi: emotsionallik va hissiyot tushunchalarining tilshunoslikdagi nazariy talqinlarini umumlashtirish; frazeologik birliklarning emotsionallikni ifodalashdagi o‘rni va vazifalarini aniqlash; o‘zbek tili frazeologik lug‘ati materiallari asosida emotsional frazeologizmlarni tanlab olish va tasniflash; emotivlikning baholash, emosionallik va ekspressivlik funksiyalarini konkret frazeologik misollar asosida yoritish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot o‘zbek tili frazeologik lug‘ati materiallari, xususan Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” asosida olib borildi. Emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklarni tanlashda ularning tarkibida his-tuyg‘u, kechinmani ifodalovchi semantik belgi asosiy mezon sifatida olindi. Tadqiqotda tavsiflash metodi – frazeologik birliklarning semantik-uslubiy xususiyatlarini yoritish uchun; kuzatish metodi – tanlangan birliklarning nutqda qo‘llanilish o‘rinlarini aniqlash uchun; komponentli tahlil metodi – frazeologizm tarkibidagi so‘zlarning emotsional ma’no yasashdagi ishtirokini ochib berish uchun; kontekstual tahlil metodi – birliklarning matn ichidagi emotsional-ekspressiv vazifasini aniqlash uchun; statistik-tasniflash metodi esa to‘plangan frazeologik birliklarni ijobiy va salbiy semantik guruhlarga ajratildi. Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda frazeologik lug‘at materiallaridan emotsionallikni ifodalovchi birliklar ajratib olindi; ikkinchi bosqichda esa ajratilgan birliklar semantik guruhlarga bo‘lib tahlil qilindi

1.1-jadval

Frazeologik birliklar va ular ifodalaydigan emotsional ma’nolar

№	Frazeologik birlik	Emotsional ma’nolar
1.	Betidan zahar tomar	qahr-g‘azabi yuz-ko‘zida bo‘rtib namoyon bo‘lar edi
2.	Boshi ko’kka (osmonga) yetdi	behad sevinmoq
3.	Bir baloga yo’liqmoq	ko‘ngilsiz, og‘ir ahvolga tushib qolmoq
4.	Bir gapirib o’n kulmoq	suhbat davomida xushchaqchaq bo‘lish
5.	Hayratda qolmoq,	nihoyat darajada ajablanmoq
6.	Jon-jonidan o’tib ketmoq	ruhan alamli ta’sir qilmoq
7.	Ko’zlaridan qon tomardi	alamdan chiqish niyati ko‘rinib turibdi;
8.	Ko’ngli suv bo’ldi	iliq munosabatda bo‘lishga moyillik tug‘ildi

Ushbu frazeologik birliklar asosan insonning ruhiy kechinmalarini, iztirobini, ruhiy holatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Leksik-frazeologik birliklar badiiy ijod tarkibida asar g‘oyasini kommunikativ hamda hissiy-ta’sirchan tarzda ifoda etish va san’atkorona foydalana bilishgina muallif nazarda tutgan ma’no va uslubiy vazifaning nutq madaniyati darajasida talqin etilishini ta’minlaydi. Lisoniy birliklarning kommunikativ va funksional-semantik, semantik-uslubiy “layoqat”ini hisobga olmasdan, ularni asliyatdagi birliklar ta’siriga berilib tarjima tili uchun g‘ayritabiiy sharoitlarda qo‘llash vazifaning mutlaqo o‘zgacha talqiniga olib kelishi mumkin. Umuman olganda emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklar salbiy va ijodiy turlarga bo‘linadi. O‘zbek tilidagi ijobiy emotsionallik tilning semantik imkoniyatlarini namoyon etadi. Ijobiy emotsional frazeologizmlar mazmuniga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘linadi (1.2-jadvalga qarang):

1.2-jadval

Ijobiy emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklar

Emotsiyalar	Frazeologik birliklar
Quvonch va shodlik	Do‘ppisini osmonga otmoq, og‘zi qulog‘iga yetdi, boshi ko‘kka yetdi (boshi osmonga yetdi sevinchi ichiga sig‘maydi (quvonchi ichiga sig‘maydi),
Hayrat va ajablanish	Hayron qoldirmoq, labini tishlamoq, ko‘zni qamashtirmoq, ko‘ziga issiq ko‘rinmoq.

Frazeologizmlarning salbiy emotsiyalarni ifodalovchi qatlami o‘zbek tilida juda keng rivojlangan. O‘zbek xalqning hayotiy tajribasi, dardu iztiroblari, kurash va ijtimoiy ziddiyatlarga munosabati aynan obrazli qo‘llanmalar orqali ifodasini topgan (1.3-jadvalga qarang).

1.3-jadval

Salbiy emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklar

Psixologik holat	Frazeologik birliklar
Affekt va g‘azab	Avzoyi buzilmoq, asabiga tegmoq (g‘ashiga tegmoq, jig‘iga tegmoq, qonini qaynatmoq, acchig‘ini keltirmoq, g‘azabga keltirmoq, zahar sochmoq, ensasini qotirmoq
Qayg‘u, iztirob, ruhiy ezilish	Bag‘rini ezmoq (yuragini ezmoq, yuragini siqmoq), bag‘ri qon bo‘lmoq (yuragi qon bo‘lmoq, dilini og‘ritmoq, xira bo‘lmoq),

Natijalar. Birinchidan, tadqiq etilgan frazeologik birliklarning katta qismi insonning ruhiy kechinmalarini va turli hissiy holatlarini ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi (1.1-jadval). Ikkinchidan, ijobiy emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklar asosan ikki semantik guruhga – quvonch-shodlik hamda hayrat-ajablanish guruhlariga – birlashtirilishi mumkinligi ko'rsatildi (1.2-jadval); Uchinchidan, salbiy emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklar affekt-g'azab hamda qayg'u-iztirob-ruhiy ezilish guruhlariga tasniflandi (1.3-jadval), To'rtinchidan, tahlil natijalari U. Rashidova ilgari surgan emotivlikning uchta funksiyasi – baholash, emosionallik va ekspressivlik – nazariyasini frazeologik misollar orqali tasdiqladi: xususan, fonetik (yuragi qora – yuragi qop-qora), grammatik (ko'zi qiymaydi – ko'zlari qiymaydi) va leksik (ko'zi ochildi – aql ko'zi ochildi) o'zgarishlar orqali ekspressivlik darajasining kuchayishi aniq misollarda kuzatildi.

Muhokama. O‘zbek tilidagi emotsional frazeologik birliklar leksik birliklardan farqli o‘laroq, voqea-hodisalarning nomini emas, balki insonning ichki dunyosini obrazli tarzda ifodalaydi; bu xulosa E. G‘oziyevning hissiyot va emotsiya tushunchalarini farqlash zarurati haqidagi qarashlari bilan hamohang keladi. Shu bilan birga, tadqiqot A. Hojiyev lug‘atida keltirilgan emotsional leksika ta’rifini frazeologik daraja misolida kengaytiradi. U. Rashidova taklif etgan emotivlikning ekspressivlik funksiyasi mazkur tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etdi, chunki fonetik, leksik va grammatik o‘zgarishlar orqali bir xil frazeologik birlikning emotsional intensivligi oshishi mumkinligi aniq misollarda ko‘rsatib o‘tildi.

Xulosa. O‘zbek tilshunosligida emosional leksika, emosional gap va uning turlari borasida muayyan nazariy asoslar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, emotivlik hodisasining o‘zi hali yetarlicha ta’riflanmagan. Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning katta qismi insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini va hissiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Leksik birliklardan farqli o‘laroq, frazeologizmlar voqea-hodisalarning nomini emas, balki insonning qayg‘u, quvonch, sevgi kabi ichki his-tuyg‘ularini obrazli tarzda ifodalaydi. Emotivlikning uchta asosiy funksiyasi – baholash, emosionallik va ekspressivlik – frazeologik birliklar tarkibida turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. O‘zbek tili frazeologik lug‘atini tahlil qilish natijasida emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklarning ijobiy (quvonch, shodlik, hayrat) va salbiy (g‘azab, qayg‘u, iztirob) turlarga bo‘linishi kuzatildi. Ijobiy emotsional frazeologizmlar xalqning estetik tasavvuri va quvonchli kechinmalarini aks ettirsa, salbiy emotsional frazeologizmlar xalqning hayotiy tajribasi, dardu iztiroblari va ijtimoiy ziddiyatlarga bo‘lgan munosabatini obrazli tarzda ifodalaydi.

Shunday qilib, o‘zbek tilidagi emotsional frazeologik birliklar xalqning ruhiy dunyosini, milliy mentalitetini va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi noyob til vositasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ғозиев Э. Умумий психология. «Университет» нашриёти, Т: - 2002. – Б. 176- 177
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Т.: Фан, 2005. – б.254
3. Рашидова У. М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): филол. ф. д. дисс. автореф. Самарканд, 2018.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.15.
5. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. УзР.ФА, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”., Тошкент, 2002. – Б. 133.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
7. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 б.
8. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций: монография. – М.: Гнозис, 2008. – 416 б.
9. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019.